

O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA METODLARNING AHAMIYATI

Sattorova Sohiba Abdusamadovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-bosqich talabasi.

sohibasattorova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13329195>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili fani sifatini oshirish uchun ingliz tilidagi to'rtta ko'nikmani mukammal shakllantirish yo'l-yo'riqlari tushuntiriladi. Ularning barchasi alohida-alohida qilib ko'rsatilib, har bittasi izohlanadi. Shu bilan birga bu ko'nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalash uchun yangi metodlar taklif etiladi. Til o'rganuvchilar uchun bu ko'nikmalarni ahamiyati xususida maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: gapirish, tinglash, yozish, o'qish, integratsiya, rivojlanish, amaliy mashg'ulotlar, guruh bo'lib ishlash.

THE IMPORTANCE OF METHODS IN IMPROVING STUDENTS' ENGLISH COMPETENCE

Abstract. This article explains the guidelines for perfecting the four skills in English to improve your English language skills. All of them are shown separately and each of them is explained. At the same time, new methods for developing and integrating these skills are offered.

The importance of these skills for language learners is discussed in the article.

Key words: speaking, listening, writing, reading, integration, development, practical training, group work.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ В ПОВЫШЕНИИ АНГЛИЙСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В этой статье объясняются рекомендации по идеальному формированию четырех навыков английского языка для улучшения качества английского языка. Все они показаны отдельно и каждый из них поясняется. В то же время предлагаются новые методы развития и интеграции этих навыков. В статье обсуждается важность этих навыков для изучающих язык.

Ключевые слова: говорение, аудирование, письмо, чтение, интеграция, развитие, практические занятия, групповая работа.

Hozirda mamlakatimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta'minlaydigan sohalar juda ko'p. Oliy ta'lim tizimi, shubhasiz, ular orasida alohida ahamiyatga ega. Chunki, millatimizning, xalqimizning ertangi kuni bugun oliy ta'lim olayotgan yosh mutaxassislar taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa'y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

Bugungi kunda tilni o'rganish hayotimizning barcha sohalaridagi har qanday yoshdagi ta'lim oluvchining va insonlarning muloqoti va shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarjimonlik, til o'rganish kabi sohalarida xorijiy tillarni bilish insonning istiqbolini oshirishi mumkin.

Ingliz tiliga va uni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislariga talab katta bo'lgan zamonaviy dunyoda uni har tomonlama o'rganish barcha ko'nikmalarni puxta shakllantirishni taqozo etadi. Ingliz tilini til tashuvchilari darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar maktablarda, ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan mashq, topshiriq va darslarni tashkil qilishi va til o'rganish jarayonida an'anaviy o'qituvchi emas, balki fasilitator (ko'mak beruvchi) rolini bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu til ko'nikmalari quyidagilar:

1. Tinglab tushunish (listening);
2. Gapirish (speaking);
3. O'qish (reading);
4. Yozish (writing).

Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalarning har birining o'zni katta. Shunday ekan, ularni o'zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Tinglab tushunish va o'qish passiv (qabul qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi, chunki ular yordamida til materiali ijod qilinmaydi, aksincha, ular o'zgalar tomonidan ijod qilingan materialni qabul qilib olishga yordam beradi. Gapirish bilan yozish esa aktiv (ijod qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi chunki, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma gaplar shaklida til materiali yordamida ifodalaydilar.

Shunday qilib, aktiv va passiv ko'nikmalar bir paytning o'zida namoyon bo'lmaydi. Gapirishdan oldin tinglash, yozishdan oldin o'qish talab qilinadi (yoki aksincha).

Tinglab tushunish (listening) – bu o'rganuvchi tomonidan eshitish ko'nikmasining yaxshi o'zlashtirilishi hisoblanadi. Tinglab tushunish ko'nikmasi orqali o'quvchilar o'zlarining eng yaxshi taraflarini shakllantiradi. Tinglab tushunish eshitish qobiliyatini yuksaltiradi. Ingliz tili darslarida quyidagi usullar orqali eshitish ko'nikmasini yaxshilash mumkin:

1. Guruh o'yinlari; (Guruh bo'lib eshit, Mock)
2. Audio o'yinlar; (Li-li)
3. Video o'yinlar; (Cinema class)
4. O'z-o'ziga gapirish. (I and you)

Tinglab tushunishni o'zlashtirish til o'rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishib o'rganishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi axborot vositalari yuksak taraqqiy etgan davrda bizning Vatanimizda ham ingliz tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish va mahoratlarini rivojlantirishda autentik materiallardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tinglab tushunishni o'rgatishga qaratilgan topshiriqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- muvaffaqiyatli tinglab tushunish til (vaziyat)ni to'la tushunishni ta'minlaydi;
- ravon va beixtiroq gapirishga xizmat qiladi;
- o'quvchilarning nutq vaziyatiga to'g'ri baxo berishga yordam beradi;
- o'quvchilarning suhbatdoshi bildirayotgan fikrlariga munosib javob berish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- mazmunni to'la anglab yetishga yordam beradi;
- yangi materialda berilayotgan yangi tushuncha va mazmunni o'zlashtirishda foydali;
- mavjud bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- suhbatdoshining ishonch va hurmatiga erishishga yordam beradi.

Gapirish (speaking) – ushbu ko'nikma bevosita muloqot orqali shakllanuvchi ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma suhbat qurish orqali amalga oshadi. Asosan, bu ko'nikma grammatikani tushungan holda amalga oshiriladi. So'zlovchilar audiolarni qo'yib, tinglashni kuchaytirishlari mumkin. Bu usul orqali ularning lug'at tizimi rivojlanadi.

Bu voqealarning ko'pchiligi real hayotiy vaziyatlardir. Ular shulardan foydalanadilar.

Zamonaviy o'qituvchilar til muammosini hal qilishi uchun, o'quvchilarning nutqiy malakalarini oshirishi uchun quyidagi o'yin va yo'llarni qo'llaydilar:

1. Ko'rsatish va aytish – ushbu faoliyatda talabalardan darsga o'ziga yoqqan bir nechta obyektini olib kelishlari aytiladi. Va ular mana shu olib kelgan obyektlarini ko'rsatishi va ularga gapirish orqali ta'rif berishlari lozim. Bu o'yin juda qiziqarli.

Chunki talabalar o'zlariga yoqqan ko'pgina narsalarni olib keladi. Bu ularni ko'proq gapirishlariga imkoniyat yaratib beradi. Ular ko'proq ta'riflar ekan, o'zlaridan g'ururlanib boraveradi. Bu o'yinda talaba olib kelgan obyektдан tashqari o'qituvchi ham obyekt olib keladi. Talabaga taqdim etadi. Talabalar gapirishi uchun o'qituvchi turli rasmlar ham olib kelishi mumkin. Rasmlar orqali talabalar turli g'oyalarni ilgari suradilar.

2. Pecha-kucha – agar talabalarining noutbuklari bo'lsa va taqdimot dasturlari bilan yaxshi tanishgan bo'lsalar Power Point orqali pecha-kucha o'yinini tashkil qilishlari mumkin. Loyihalaridan foydalangan holda rasmlarni ekranga tushiradilar va gapiradilar.

Pecha-kucha taqdimot o'yini qiziqishni uyg'otadi. O'quvchiga 20 soniyada 20 ta slaydni ko'rish imkoniyati beriladi. (Vaqt dastur tomonidan boshqariladi.) Keyin esa rasmlar avtomatik ravishda o'zgaradi. Talaba ularni ta'riflab, joy-joyiga qo'yishi lozim bo'ladi. Bu o'yin juftlik va sheriklikda qilinishi mumkin.

3. Bingo – ko'pchilik bu o'yinni tinglash faoliyati deb o'ylaydi, vaholanki u bunday emas. Bu o'yin gapirish faoliyati xususida. Bu o'yin tez muddatda nutqiy faoliyatga aylanadi. Bu o'yin 25 tagacha so'z, ibora va bingo kartalari to'plamini o'z ichga oladi.

Ingliz tilida yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning quyidagi afzalliklari bor:

- ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri yozilishini o'rganish;
- grammatik qurilmalarni tizimli ravishda o'rganish;
- turli vaziyatlarga mos so'zlarni tanlab ishlata bilish;
- til o'rganuvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- o'quvchilarning xat va esselar yoza olishi;
- o'quvchilarning xulosalar bera olishi;
- o'quvchilarning hikoyalar yoza olishi;
- o'quvchilarning lug'at bilan samarali ishlay olishi;
- o'quvchilarning tayyor matnga kerakli o'zgartirishlar kirita olishi.

O'qish (reading) – bu talaba uchun eng qiziqarli bo'lgan ko'nikmalardan biridir.

Bu ko'nikmani o'rgangan talaba bemalol ingliz tilidagi badiiy asarni ham o'qib, ham tushuna oladi. Savodxonlikning cho'qqisi talaba uchun mana shu ko'nikma turida bilinadi.

O'qish mana shu o'yinlar orqali rivojlanadi:

1. Kim savodxon, kim zukko;
2. Rolli o'yin;
3. So'z o'rini top;
4. Zanjir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tili o'rganuvchisi mana shu yuqoridagi to'rtta ko'nikmani o'zlashtirsagina ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. O'zi uchun ham foydali saboqni olgan bo'ladi.

REFERENCES

1. Мадиева Г.А. Гавхар Абдулазимовна, and Назира Наримановна Дусбаева. "Some modern methods of teaching English." Молодой ученый 7
2. Мадиева Г. А., & Дусбаева, Н. Н. (2016). Some modern methods of teaching
3. English. Молодой ученый, (7-2), 102
4. Greenalls. and M. Swan. 1986. Effective Reading. Cambridge. Cambridge University Press.
5. Baker. T.2008. Applying reading research to the development of an integrated lesson plan.